

Qayumova Nilufar

Oriental Universitet talabasi tel (+998936691209)

Vohidova Muqaddas Rasuljonovna

Oriental Universiteti boshlang’ich ta’lim kafedra o’qituvchisi tel (+99894 842 40 20)

Annotatsiya: Ushbu maqolada, o’zbek adabiy tilining muhim bo’lagi sifatida hisoblanadigan qo’shma gap va uning tarkibiy qismlari haqida tafsilotlar taqdim etilgan. Grammatikada asosiy bo’lim sifatida hisoblanadigan qo’shma gaplar mavzusi juda katta ekanligi sababli, bu maqolada qo’shma gapning bo’g’lovchi tarkibiy qismlariga qisqa va oson tushuntiruvchi mulohaza berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo’shma gaplar, grammatik shakl, bog’lovchisiz murakkab qo’shma gaplar, kesimlik belgisi, yuklama, ko’makchi, grammatika.

KIRISH

Intonatsiya, bog’lovchisiz qo’shma gaplarning tuzilishida eng asosiy vosita hisoblanadi. Bu tur gaplarda turli ma’no ottenkalarining ifodalanishida intonatsiya asosiy faktor hisoblanadi. Bog’lovchisiz qo’shma gaplar, bog’langan yoki ergash gapli qo’shma gaplarning bog’lovchisiz varianti emas, balki qo’shma gapning alohida tipidir. Bog’lovchisiz qo’shma gap qismlari orasiga teng yoki ergashtiruvchi bog’lovchilarни majburan kiritib bo’lmaydi. Aks holda, gap konstruktsiyasi o’zgaradi va yopiq konstruktsiya hosil bo’ladi. Bog’lovchisiz qo’shma gaplar esa ochiq konstruktsiya hisoblanib, mazmunan o’zarobirikkan bir necha tipli soda gaplardan tashkil topadi. Qor va shamol kuchaya bordi, tashqarida qishni va qorni sog’ingan qarg’alarning qag’illashlari.

Qo’shma gaplarda komponentlarni biriktiruvchi ega yoki ergashtiruvchi bog’lovchilar qo’llanmagan o’rinlarda, leksik va intonatsion vositalarning roli muhimdir. Bu sababdan, bog’lovchisiz qo’shma gapqismlarini biriktirishda ayrim leksik elementlarning, olmosh va mavhum ma’noli so’zlarning ishlatalishi, umumiyligi va ikkinchi darajali bo’laklarning takrorlanishi kabi vositalar foydalaniladi. Bu vositalar mazmun munosabatlari va gapning turini shakillantirishda hamda mazmun munosabatlarini o’zgartirishda ro’yxatga olingan.

Shuni aytib o’tish kerakki, yuqorida bo’limda ko’rsatilgan vositalar keng ma’noda sintaksis bo’limida bog’lovchilar sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu vositalar orqali yaratilgan qo’shma gaplar turiga nisbatan “bog’lovchisiz” atamasi shartli tarzda ishlataladi. Bog’lovchisiz qo’shma gaplar strukturasi. Bog’lovchisiz qo’shma gaplarni tashkil etuvchi komponentlar turli xil shakllardan iborat bo’lishi mumkin. Bog’lovchisiz qo’shma gaplarni tashkil etuvchi soda gaplar, ko’pincha, darak gap shaklida bo’ladi: Yaxshi yaxshiga yondoshtirar, Yomon yo’ldan adashtirar (maqol). Ba’zi bog’lovchisiz qo’shma gaplarning bir komponenti ritorik so’roq gaplardan ham iborat bo’lishi mumkin. Chekinsinmi –yo’q, g’ururi yo’l bermaydi.

Bog’lovchisiz qo’shma gaplar, ularning ko’proq jonli nutqda ishlatalishi sababli, struktura jihatidan oldindan bevosita tuziladi. Qo’shma gapning bir komponenti yoki har ikkisi bosh bo’lakli gapdan iborat bo’lishi mumkin. Misol sifatida: “Eshakni yaydoq minib

bo'lmaydi –yiqitadi kishini (A.Q.) shaxssiz gap. Kulib turgan baxtiga yuzni teskari burish – bu qanday nonko'rlik!"

1-komponent –infinitiv gapdan iborat.2. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarida biri yoki har ikkisi to'liqsizgaplardan ibort bo'ladi: Ahmoq xoriganini bilmas, ko'sa qariganini (maqlol).Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi (To'liqsiz gap).Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil etgan gaplarning har qaysisi, agar ularikki sostavli gap bo'lsa, egasi bo'lishi shart.

TADQIQOT NATIJALARI

Keyingi yillarda, qo'shma gap sintaksisi sohasida ko'p jiddiy va yirik ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlar qo'shma gap nazariyasi, semantik grammatik tuzilmasi va klassifikatsiyasi bo'yicha taraqqiyot qonunlarini yoritdi. Biroq, hali qo'shma gap sintaksisining aniqliklarida bir nechta bosqichlar mavjud. Bu erda qo'shma gap sintaksisi va unga oid bo'lgan muammolar halol yechimini kutmoqda. Qo'shma gap sintaksisini tarixiy tarzda o'rganish, qo'shma gap tillarini aniqlash va ularning farqlarini ilmiy dalillash uchun zamin yaratdi. Bu, lingvistika ilmi uchun yangi g'oyalar va qiziqarli kashfiyotlar olishda muhim ahamiyatga ega. Qadimda qo'shma gaplarning oddiy tuzilish prinsiplariga e'tibor berilgan. Misollar: "birlik bor – tiriklik bor; birlik yo'q-baraka yo'q, dard boshqa – o'lim boshqa, dard mehmon – tana qo'rg'on" kabi.

Jumladan gap nazariyasining ilmiy yechimi sodda va qo'shma gap tushunchalari, shuningdek ularning farqlarini aniq belgilash imkoniyatini ko'rsatadi. Qo'shma gap sintaksisi umumi ravishda gapning grammatik tuzilmasini ifodalaydi va turk tillarida, shu jumladan o'zbek tilida sinxronik tarzda kafi miqdorda o'rganilgan, lekin diaxronik tarzda yetarlicha o'rganilmagan. Ma'lumki, "o'rdak o'rdak bilan uchar, g'oz g'oz bilan uchar; o'rik o'rikni ko'rib rang oladi, uzum uzumni ko'rib chumak uradi, o'rganish oson o'rgatish qiyin" kabi ko'rinishlarda qo'shma gapning qadimiyliklari mavjud. Bu masalada tilshunos olimlarning fikrlari o'zaro farq qilishi mumkin, ammo ularning bir-biriga bog'lanishlar asosida har bir qo'shma gapning qismlari birikkan.

Ko'rganingizdek, qo'shma gap turlarini bog'lovchisiz va bog'lovchi turlariga ajratishda grammatik munosabatining roli muhimdir, va asosiy kriteriy gaplarning birikish usullari va ularning o'rtasidagi munosabatni tushuntirishdir. Bu, qo'shma gap sintaksisining asosidir. Bog'lovchilar, nisbiy so'zlar va bog'lovchi vasifasini bajaruvchi boshqa leksik-grammatik vositalar, belgilangan qo'shma gapdagi munosabatlarni kuchaytirish yoki to'ldirish uchun xizmat qiladi. Nutq vaziyati tartib grammatik tuzilma leksik-grammatik vositalar munosabatlarini bir-biridan farqlashda muayyan turdag'i gaplarga moslashishda katta ahamiyatga ega. Masalan, teng bog'lovchilar qo'shma gaplarni o'zgartiruvchi bog'lovchilar, ergashgan bog'lovchilar esa chegaralash va farqlash vositalaridan hisoblanadi. Bog'lovchilarning hozirgi nomlanishi va guruhanishi esa gapdagi munosabatni ko'rsatishda sintaktik vasifikasi bilan bog'liqdir.

Qo'shma gap sintaksisi sohasida qo'shma gaplarning rivojlanishi va taraqqiyot qonunlarini aniqlash, shuningdek mavjud klassifikatsiyalariga aniqliklar kiritish, eng aktual masalalardan biri hisoblanadi. Qo'shma gaplarni turlarga ajratishda, xususan bog'lovchisiz qo'shma gap haqida tilshunoslikning nuqtai nazarlari farq qiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni monografik o'rganish orqali yuqorida savolga javob berish mumkin. Bu maqolada

qo'shma gap turlarining yaratilishi va ularning terminologiyasi haqida o'z fikrlarimizni ifoda etmoqchimiz.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar, ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning, faqat mazmun va birlashtiruvchi intonatsiya yordamida bog'lanishidan tashkil topgan sintaktik tuzilmalar bo'lib, ularni bog'lovchisiz qo'shma gap deyiladi. Misol sifatida, "Odamning tanasida chorakam besh litr qon bor, shuning hammasi taxminan har minutda bir marta yurakdan o'tib turadi" gapida bu tuzilma ko'rsatilgan. Bog'lovchisiz qo'shma gapning komponentlari bir-biridan sanash intonatsiyasiga o'xshash tarkibiy elementlarga ega bo'lib, unda voqealarning bir vaqtida yoki ketma-ket yuz berishini tasvirlashda ko'proq intonatsiya qo'llaniladi. Misol sifatida, "Daraxtlarning ustidan onda-sonda qushlarning sadosi bir zumgina yangrar, yana jimlik cho'kardi" gaplarida bu tuzilma keltirilgan. Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari, teng yoki ergashtiruvchi bog'lovchilarsiz birikadi. Biroq, sodda gaplarning tuzilishida leksik, morfologik, sintaktik parallezm (muvoziylik) mavjud bo'lib, bu holatlar qismlarni bog'langan qo'shma gaplarga va ergash gapli qo'shma gapga nisbatan ham ta'sir qiladi va ma'lum qo'shma gap turining tuzilishiga sabab bo'ladi.

Xullas, ohang, intonatsiya bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tuzilishida asosiy, hal qiluvchi vosita hisoblanadi. Ohang, bog'lovchisiz qo'shma gaplarda turlicha ma'no va ma'no nozikliklarining ifodalanishida ham asosiy omildir. Shu ma'noda bog'lovchisiz qo'shma gap, bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplarning bir varianti emas, balki alohida bir tipidir. Gaplarni biriktiruvchi grammatick vositalar qatnashmaganda ayrim so'z va ohang vositalarining roli ortadi. Shu sababli, bog'lovchisiz qo'shma gaplarning komponentlarini bog'lashda ayrim so'zlar, umumiyl ikkinchi darajali bo'laklar, ayrim gap bo'laklarining takrorlanishi, komponentlar kesimlarining bir xil zamon va shaklda bo'lishi, elliptik qurilmalar muhim rol o'ynaydi. Bu sababdan, bu xil qo'shma gaplarga nisbatan bog'lovchisiz atamasini qullah shartli bo'lib qoladi. Zero, yuqorida ko'rsatib o'tilgan vositalar ham keng ma'noda bog'lovchi vositalardir.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar komponentlarining munosabati jihatidan ikki xil bo'ladi:
1) teng qisqli qo'shma gap, 2) tobe qisqli qo'shma gap.

Birinchi tur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro mazmunan teng munosabatda bo'ladi va tenglovchi intonatsiya (ohang) orqali bog'lanadi. Shu jihatdan bog'langan qo'shma gapga o'xshaydi. Ular o'rtasidagi farq bog'lovchisiz qo'shma gaplarda teng bog'lovchilarning qo'llanmasligidadir. Misol uchun: "Yalpi yig'ilish o'z ishini soat o'n ikki tugatdi, sho'balarни soat beshda." va "Yalpi yigilish o'z ishini soat o'n ikkida tugatdi, sho'balar esa soat beshda tugatdi."

Ikkinchi tur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro tobe munosabatda bo'ladi va tobelovchi intonatsiya (ohang) orqali bog'lanadi. Shu jihatdan ular ergashgan (ergash gapli) qo'shma gapga o'xshaydi. Misol uchun: "qo'shning tinch – sen tinch." va "qo'shning tinch bo'lsa, sen ham tinch bo'lasan." Shulardan kelib chiqqan holda bog'lovchisiz qo'shma gaplarni ikki turga ajratish mumkin:

1. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap.
2. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap.

XULOSA

Barcha ko'rsatilganlarni xulosalaylik, Bog'lovchisiz qo'shma gaplar, bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplarning bog'lovchisiz varianti emas, balki o'zining alohida tipidir. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga teng yoki ergashtiruvchi bog'lovchilarni majburan kiritib bo'lmaydi. Aks holda, gap konstruktsiyasi o'zgaradi va yopiq konstruktsiya hosil bo'ladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar esa ochiq konstruktsiya hisoblanib, mazmunan o'zaro birikkan bir necha tipli soda gaplardan tashkil topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug` va kelajagi farovon bo'ladi. T.: "O'zbekiston", 2019.
2. Yo'doshev J., Yo'ldosheva F, Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim -sifat kafolati. - Toshkent, 2008.
3. Ro'ziyev D., Usmonboyeva M, Xoliqova Z. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. -Toshkent, 2013. 146-b.
4. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. -Toshkent, "O'ME" 2009. 324-b.
5. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. -Toshkent, "O'ME" 2009. 243-b.
6. Tadjibayeva D.Sh. Ona tili o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari // The journal of academic research in educational sciences. 2021. maxsus son. 486-488 betlar.
7. Tadjibayeva D.Sh. "5-sinf ona tili darslarining adabiyot fani bilan o'zaro integratsiyasi". // Tilshunoslikdagi zamonaviy yonalishlar: Muammo va yechimlar. Xalqaro amaliy konfrensiya. Andijon, 2020. 136-139-betlar.